XORIJIY MUZEYLARDAGI GILAM KOLLEKSIYALARINING SHAKLLANISH TARIXI, HUDUDIY-ETNIK XUSUSIYATLARI TAHLILI

Ra’no Zafarjon qizi XATAMOVA
tarix fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori
O‘zFA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi
Toshkent, O‘zbekiston
e-mail: xatamovar16@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada jahonning yetakchi muzeylari fondlarida saqlanayotgan o'zbek gilamdo’zlik merosi va uni ilmiy tadqiq etishning xalqaro tajribalari keng yoritilgan. Unda xorijiy muzeylardagi gilam kolleksiyalarining shakllanish tarixi, hududiy-etnik xususiyatlari, texnologik tuzilishi hamda atributsiya masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, Turkiya, Ozarbayjon va Misr kabi davlatlarning gilam merosini muzeylashtirish, kataloglashtirish, konservalash va raqamlashtirish borasidagi ilg'or tajribalari qiyosiy o'rganilib, ularni O'zbekiston muzeyshunosligi amaliyotiga joriy etish yuzasidan ilmiy-metodik takliflar berilgan.

Tayanch so‘zlar: gilamdo‘zlik merosi, muzey kolleksiyasi, xalqaro tajriba, atributsiya, raqamlashtirish, to'qimachilik texnologiyasi, etnografik muhit.

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КОВРОВЫХ КОЛЛЕКЦИЙ В ЗАРУБЕЖНЫХ МУЗЕЯХ, АНАЛИЗ ИХ РЕГИОНАЛЬНО-ЭТНИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ

Раъно Зафаржон қизи ХАТАМОВА
Доктор философии по (PhD) историческим наукам
Государственный музей истории Узбекистана АН РУз тарих фанлари бўйича
Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В данной статье широко освещено узбекское наследие ковроткачества, хранящееся в фондах ведущих музеев мира, и международный опыт его научного исследования. В ней проанализированы история формирования ковровых коллекций в зарубежных музеях, их регионально-этнические особенности, технологическая структура и вопросы атрибуции. Также сравнительно изучен передовой опыт таких государств, как Турция, Азербайджан и Египет, в области музеефикации, каталогизации, консервации и цифровизации коврового наследия, а также даны научно-методические рекомендации по их внедрению в практику музееведения Узбекистана.

Ключевые слова: наследие ковроткачества, музейная коллекция, международный опыт, атрибуция, цифровизация, текстильная технология, этнографическая.

Madaniy merosni asrab-avaylash tizimi so‘nggi o‘n yilliklarda tubdan yangilanib, saqlash maskanidan muloqot va ilmiy tadqiqot markaziga aylandi. Bugungi kunda Xalqaro muzeylar kengashi (ICOM) tomonidan tasdiqlangan

muzey ta’rifiga ko‘ra, muzey jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi, o‘tmish va kelajakni bog‘lovchi ochiq institut sifatida maydonga chiqmoqda. Xususan, noyob to‘qimachilik va gilamdo‘zlik namunalari bilan ishlashda bu o‘zgarishlar nafaqat ekspozitsiya uslublarini, balki butun ilmiy-metodologik yondashuvni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Ilgari muzeylar faqatgina qat’iy tartibda saqlanadigan va tashrif buyuruvchilardan uzoq tutiladigan boyliklar ombori sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, hozirgi kunda ular jamoatchilik bilan bevosita muloqot qiladigan, ta’limiy dasturlar, master-klassilar va ilmiy muhokamalar markaziga aylandi.

Zamonaviy muzey shunchaki buyumlarni namoyish etuvchi emas, balki ularni laboratoriya sharoitida chuqur o‘rganuvchi, moddiy va nomoddiy meros uyg‘unligini tadqiq etuvchi ilmiy muassasadir. Gilamdo‘zlik namunalarini o‘rganishda etnografik, tarixiy va texnologik tahlillar muzey ekspozitsiyasining ilmiy konsepsiyasini shakllantiradi.

Raqamli texnologiyalarning shiddat bilan kirib kelishi muzeylar chegarasini kengaytirdi. Virtual muzeylar, onlayn kataloglar va yuqori aniqlikdagi raqamli arxiv tizimlari dunyoning istalgan nuqtasidagi tadqiqotchi yoki qiziquvchilarga noyob to‘qimachilik durdonalaridan foydalanish imkonini bermoqda.

Gilam va to‘qimachilik buyumlarini ekspozitsiyasini yaratishda an’anaviy vertikal osish usullaridan farqli o‘laroq, yorug‘lik installyatsiyalari, kontekstual muhitni yaratish masalan, to‘quv dastgohi yoki mahalliy ustaxona muhitini jonlantirish hamda har bir maktabning hududiy xususiyatlarini ochib beruvchi multimedia vositalari keng qo‘llanilmoqda. Bunday ilg‘or halqaro tajribalarni milliy muzeyshunoslik va gilamdo‘zlik merosining ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Xalqaro muzey tajribasi gilam merosini saqlash va targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Turkiya, Eron, Ozarbayjon va Turkmaniston muzeylarida milliy gilamchilik an’analariga bag‘ishlangan maxsus ekspozitsiyalar tashkil etilgan. Ularda gilam namunalari nafaqat san’at asari sifatida, balki xalq tarixi va madaniyatining muhim manbasi sifatida talqin qilinadi.

Gilamdo‘zlik merosini muzeylashtirish va uni ilmiy-madaniy jihatdan tadqiq etishda Turkiya va Ozarbayjon qatorida Misr Arab Respublikasi ham o‘zining boy

tarixiy tajribasiga ega. Misrda gilam san’ati qadimgi Fotihiylar, Mamluk va Usmonlilar davridan boshlab yuqori cho‘qqiga chiqqan bo‘lib, bugungi kunda Qohira shahridagi ixtisoslashgan muzeylar hamda ekspozitsiyalar bu merosni saqlashda muhim o‘rin tutadi. Sharq mamlakatlarida, jumladan Misrda gilam va to‘qimachilik merosini saqlashda tarixiy-me’moriy muhitning o‘rni katta bo‘lib, bu jarayon o‘rta asr arxitektura obidalarining konstruktiv xususiyatlarini o‘rganishni taqozo etadi [1;12–15.].

Misrda gilam va to‘qimachilik namunalarini asosan Islom san’ati muzeylari tizimida, xususan, Qohira Islom san’ati muzeyida (Museum of Islamic Art in Cairo) hamda G‘air-Mahmud muzeyida uchratish mumkin [2]. Misr gilam maktabi o‘zining o‘rta asrlarga oid Mamluk gilamlari (Mamluk carpets) koleksiyalari bilan jahonga mashhurdir [3]. Qohira Islom san’ati muzeyining binosi mamlakatdagi an’anaviy Mamluk me’moriy uslublari uyg‘unligida loyihalashtirilgan bo‘lib, umumiy ekspozitsiya sharqona naqshlar va geometrik naqqoshlik elementlari bilan bezatilgan. Misr muzeylarida harorat va nisbiy namlikning keskin o‘zgarishi muzey eksponatlariga jiddiy zarar yetkazishi, jumladan, to‘qimachilik mahsulotlarida oksidlanishining oldini olish uchun eksponatlar saqlanadigan, ko‘rgazmaga qo‘yiladigan va zaxirada saqlanadigan maydonlar ichki muhitning mikroiqlimi nazorat qilinadi [4;6]. Muzeyda saqlanadigan XIV–XVI asrlarga oid Misr Mamluk gilamlari asosan geometrik naqshlar (sakkiz qirrali yulduzlar, murakkab romblar) va to‘q qizil, ko‘k hamda yashil ranglar uyg‘unligi bilan ajralib turadi [5; 5]. Misrlik olimlar tomonidan Mamluk gilamlarini O‘rta Yer dengizi va Yaqin Sharq savdo aloqalari hamda to‘qimachilik texnikasi (simmetrik bo‘lmagan turk uzellaridan foydalanish xususiyatlari) asosida katta ilmiy kataloglar yaratilgan [6; 25].

Gilam muzeylarining me’moriy qiyofasi uning faqatgina tashqi ko‘rinishi emas, balki g‘oyaviy va estetik mazmunining uzviy davomi hisoblanadi. Ozarbayjon Milliy gilam muzeyi (Boku) Avstriyalik me’mor Frans Janets tomonidan loyihalashtirilgan va 2014-yilda foydalanishga topshirilgan mazkur bino tashqi ko‘rinishidan buklangan ulkan gilamni eslatadi hamda eksponatlarni

ultrabinafsha nurlardan himoya qilish talablariga to‘la javob beradi. Muzeyda "Vətənə qaytarılan eksponatlar" Vatanga qaytarilgan eksponatlar maxsus loyihasi doirasida xorijiy auksionlar va xususiy kolleksiyalardan XVII–XIX asrlarga oid "Şamaxı", "Xətai", "Naxçıvan" kabi nodir gilamlarni tarixiy vataniga qaytarish ishlari amalga oshirilgan [7;20]. Muzeyda esa Qorabog‘, Ganja, Quba va Shirvon gilam maktablarining namunalari hamda naqsh kompozitsiyalari qat’iy ilmiy tizimda taqdim etilgan [8].

Qadimiy to‘qimachilik va gilamchilik madaniyatini asrab-avaylash, uni ilmiy asosda tadqiq etish hamda keng jamoatchilikka yetkazishda Turkiyaning boy tajribasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, Istanbul shahridagi Vakiflar gilam muzeyi (Vakıflar Halı Müzesi) faoliyati bu borada eng ilg‘or muzeyshunoslik modellaridan biri hisoblanadi. Vakiflar gilam muzeyi Sultonaxmet jome masjidining tarixiy Hunkor Kasrida joylashgan. Halы muzeyi dastlab Sultonaxmet jome masjidining Hunkor Kasrida faoliyat yuritgan bo‘lib, keyinchalik (2013-yildan boshlab) Ayo sofiya imoratiga ko‘chirilgan [9;186]. Turkiya Vakiflar boshqarmasi tasarrufidagi muzeylarda XIII asrga oid Saljuqiy gilamlarining qoldiqlari va XV–XVI asrlarga oid Ushak gilamlari ilmiy namoyish etilgan [2].

Kanadadagi Textile Museum of Canada tajribasi to‘qimachilik kolleksiyalarini raqamli kataloglashtirishning amaliy imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Muzeyning onlayn kolleksiyasida 15 mingdan ortiq to‘qimachilik namunalari mavjud bo‘lib, ularni hududlar bo‘yicha qidirish va tasniflash imkoniyati yaratilgan. Elektron kataloglarda predmet nomi, etnik mansubligi, tayyorlangan joyi, sanasi, davri, materiali, texnikasi, o‘lchami va identifikatsiya raqami kabi ma’lumotlarning alohida qayd etilishi ilmiy axborotni tizimlashtirish uchun muhim namuna hisoblanadi. Ushbu tajriba O‘zbekiston muzeylari uchun ayniqsa muhim, chunki raqamlashtirishni faqat gilamlarning fotosuratlarini elektron shaklga o‘tkazish bilan cheklash ilmiy axborotning katta qismini yo‘qotishga olib keladi. Elektron katalogda muzey hisob raqami bilan bir qatorda hudud, etnik mansublik, davr, material, texnika, o‘lcham, kompozitsiya, ornament, kelib chiqishi va harakat

tarixi, saqlanish holati hamda ilmiy adabiyotlar bilan bog‘liq ma’lumotlarning saqlanishi zarur.

Turkmaniston Milliy tarix va etnografiya muzeyi o‘z fondidagi 500 mingdan ortiq noyob eksponatlar qatorida turkman xalqining asriy to‘qimachilik va gilamdo‘zlik an’analarini ilmiy jihatdan chuqur yorituvchi yetakchi markazlardan biri hisoblanadi. Muzeyning tematik zallarida taqdim etilgan artefaktlar turkman gilamchiligining kelib chiqish ildizlari moddiy madaniyat va etnografiya bilan uzviy bog‘liq holda ochib berilgan. Muzeyning qadimgi tarix va ilk dehqonchilik sivilizatsiyalariga Jayhun, Oltintepa, Namazgoh-Depa, Anav manzilgohlariga bag‘ishlangan bo‘limlari to‘qimachilik san’atining ilk shakllanish bosqichlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Garchi ushbu davrlardan bizga asosan loy, metall va tosh buyumlar yetib kelgan bo‘lsa-da, ulardagi geometrik naqshlar, ornament va ramziy belgilar keyingi davrlardagi turkman gilamlari kompozitsiyasi va naqsh tizimining shakllanishiga asos bo‘lib hizmat qildi [10]. Muzey ekspozitsiyasida turkmanlarning bo‘yalgan qo‘y junidan qo‘lda to‘qilgan mashhur gilamlari xalq amaliy san’atining eng nafis durdonalari sifatida namoyish etiladi. Muzeyda gilamdo‘zlik san’ati faqat gilamlar bilan cheklanmasdan, balki milliy kiyim-kechaklar, xususan, ayollar liboslari va kelinlar sarposi misolida keng ochib berilgan. Maxsus kashtado‘zlik matolari, zargarlik buyumlari bilan uyg‘unlashgan to‘qimachilik namunalari turkman hunarmandchiligining yaxlit tizimini tashkil etadi. Shuningdek, mashhur Axalteke otlari uchun maxsus to‘qilgan va bezatilgan anjomlar, gilam va to‘qimachilik elementlarining “ot madaniyati” bilan bog‘liqligi muzeyning etnografik qimmatini yanada oshiradi. Turkmaniston Milliy tarix va etnografiya muzeyi gilamdo‘zlik va to‘qimachilik yo‘nalishida nafaqat tayyor namunalarni namoyish etuvchi maskan, balki ming yillik arxeologik qatlamlardan tortib to amaliy san’at va etnografiyagacha bo‘lgan uzluksiz zanjirni o‘rganish imkonini beruvchi fundamental ilmiy bazadir.

Turkmaniston davlat gilam muzeyi 1994-yil 24-oktyabrda tashkil etilgan bo‘lib, unda ko‘chmanchi va o‘troq turkmanlarga xos qadimiy palos, chuvol, xurjun hamda to‘rva kabi yirik to‘qimachilik kolleksiyalari jamlangan. Mazkur

muzey ekspozitsiyasining eng o‘ziga xos jihatlaridan biri xalqaro muzeyshunoslikda kam uchraydigan ulkan hajmdagi eksponatlarning namoyish etilishidir. Markaziy Osiyo gilamdo‘zligining jahon madaniy merosidagi o‘rnini ochib berishda XIII asrda sayyoh Marko Polo turkman gilamlarini dunyodagi eng go‘zal va nafis deb e’tirof etgani, shuningdek, XIV asr italyan Uyg‘onish davri rassomlari Lippo Memmo va Nikolo Buonarokso o‘z asarlarida turkman gilamlarini tasvirlagani kabi tarixiy dalillar muzey faoliyatida san’atshunoslik va tarix yondashuv tatbiq etilganidan dalolat beradi [11]. Zamonaviy xalqaro muzey amaliyotidagi Tirik tarix muzeyi (*Living History Museum*) konsepsiyasi ushbu muzey faoliyatida ham o‘z aksini topgan. Muzey tarkibida kichik gilam to‘qish ustaxonasining faoliyat yuritishi tashrif buyuruvchilarga an’anaviy hunarmandchilik jarayonini bevosita kuzatish imkonini beradi. Qolaversa, muzey qoshida yangi gilamlar savdosiga mo‘ljallangan maxsus do‘konning mavjudligi xalqaro amaliyotdagi muzey marketingi, turistik infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy hunarmandlarni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bilan uzviy uyg‘unlikni ta’minlaydi. Turkmaniston gilam muzeyi xalqaro tajriba nuqtayi nazaridan nafaqat milliy merosni saqlovchi maskan, balki arxeologik ildizlar, jahon san’ati tarixi bilan aloqalar, ishlab chiqarish jarayoni ("tirik muzey") va turistik xizmatlarni o‘zida mujassam etgan kompleks madaniy-ma’rifiy markaz sifatida namoyon bo‘ladi.

Turkmaniston muzeylarida elektron baza va virtual muzeyni shakllantirish tajribasi gilam merosini jamoatchilikka raqamli muhitda taqdim etishning yana bir yo‘nalishini ko‘rsatadi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, muzey boyliklarining yagona elektron bazasini shakllantirish va virtual muzeyda “Carpet” bo‘limini taqdim etish bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan; keyingi bosqichlarda 3D va 360° virtual turlar ham joriy etilgan [12]. O‘zbekiston sharoitida mazkur tajribadan foydalanishda virtual muzeyni faqat raqamli ekspozitsiya yoki uch o‘lchamli ko‘rish vositasi sifatida emas, balki elektron katalog, ilmiy pasport, raqamli tasvir, atributsiya ma’lumotlari, predmetning kelib chiqishi va harakat tarixi, ilmiy bibliografiya hamda virtual ekspozitsiya o‘zaro bog‘langan yagona axborot muhiti sifatida

tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv virtual muzeyni muzey fondlarining raqamli nusxasi emas, balki ilmiy tadqiqot va madaniy kommunikatsiya vositasi sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Xalqaro muzeylar amaliyotida, xususan, Xitoy Milliy Ipak Muzeyi (*China National Silk Museum — CNSM*) faoliyati misolida gilamdo‘zlik va to‘qimachilik merosini namoyish etish muzeyshunoslikning ilmiy yondashuv hamda yuqori texnologiyalarni uyg‘unlashtirgan eng nozik yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Muzeyning Jahon tajribasida bu borada bir nechta asosiy ustuvor yo‘nalishlar shakllangan. Zamonaviy muzeylar faqat ko‘rgazmalar bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy raqamli infratuzilmani faol joriy etmoqda. Ozarbayjon Touch-ekranlar va gilam to‘qish bo‘yicha amaliy master-klasslar yo‘lga qo‘yilganligini guvoh bo‘lish mumkin [1;33].

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, gilam merosini muzeylashtirish Turkiya, Ozarbayjon va Misrda yuqori darajada shakllantirilgan bo‘lib, o‘zbek gilam merosini muzeylashtirishda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

1. Ozarbayjonning hududiy maktablarni ilmiy tasniflash va interaktiv ta’lim muhitini yaratish tajribasi;

2. Turkiyaning tarixiy obidalardan oqilona foydalanish va vaqf gilamlarini pasportlashtirish amaliyoti;

3. Misrning o‘rta asr Mamluk gilamlarini saqlash, kimyoviy konservatsiya qilish hamda raqamli arxivlarni yaratish usullari yuqori ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston muzeylarida ham gilamdo‘zlik merosini muzeylashtirish jarayonini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday chora-tadbirlar milliy gilamchilik merosining xalqaro miqyosda tanilishi va ommalashishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Parker R. B., Sabin R. Islamic Monuments in Cairo: A Practical Guide. — Cairo: American University in Cairo Press, 1985. — P. 12–15.
2. Dala tadqiqotlari.

3. https://ansygallery.ru/sherstyanye/mamlyuk_1065/

4. ElAdl M., Fathy F., Morsi N. K., Nessim A., Refat M., Sabry H. Managing microclimate challenges for museum buildings in Egypt // Ain Shams Engineering Journal. — 2022. — Vol. 13. — P. 6.

5. Bier C. Mamluk Rugs from Egypt. Washington: The Textile Museum, 2003. P. 5.

6. Samsel P. Illumination Underfoot: The Design Origins of Mamluk Carpets // Sophia: The Journal of Traditional Studies. 2004. Vol. 10, № 2. P. 25.

7. Məlikova Ş. Azərbaycan Milli Xalça Muzeyi - 55: Vətənə qaytarılan eksponatlar, innovativ layihələr // "Qobustan" san‘at jurnali. — Boku, 2022. — № 2 (İyul). — S. 20.

8. Seyf H. Hadi. The Majnoonies in commemoration of the Majnoonies (the Hekmat Nejad family) the carpet desiners and weavers o... / H. Hadi Seyf. — Tehran : Soroush Press, 1995.

9. Özçelik S. İstanbul Vakıflar Halı Müzesi - Geçmişten Bugüne Halı ile Tarihi Bir Yolculuk // Vakıflar Dergisi. — Ankara, 2014. — Sayı 41. — B. 186.

10. World and Its Peoples: The Middle East, Western Asia, and Northern Africa. Marshall Cavendish. 2006. p. 689. ISBN 0-7614-7571-0.

11. Carpet Museum // Ayan Travel Company. — Archived from the original on 07.07.2011.

12. State Museum of Turkmenistan. Virtual Tour of Museums of Turkmenistan. – Ashgabat: Government of Turkmenistan. https://www.turkmenistan.gov.tm/en/post/62559/virtual-tour-museums-turkmenistan

13. Azerbaijan carpets / V. Muradov. — Baki : Elm, 2008. S. 33.